# TANISHTIRUV



Kamilov Zoxidjon Olimovich Qo‘shtepa tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i lavozimiga tayinlandi.

Zoxidjon Kamilov 1979 yilda Qo‘shtepa tumanida tug‘ilgan. 2001 yilda Toshkent oliy harbiy texnik bilim yurtini,

2008 yilda O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi akademiyasi tamomlagan.

Zoxidjon Kamilov 2001-2006 yillarda Farg‘ona viloyati Ichki Ishlar boshqarmasi moliya iqtisod bo‘limi pensiya ta’minoti katta inspektori, 2006-2008 yillarda viloyat Ichki Ishlar boshqarmasi jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi tezkor vakili, 2008-2009 yillarda viloyat Ichki Ishlar boshqarmasi qo‘riqlash boshqarmasi moliya-iqtisod bo‘limi bosh hisobchisi, 2010-2013 yillarda Marg‘ilon shahar Ichki Ishlar bo‘limi jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i, 2013-2014 yillarda viloyat Ichki Ishlar boshqarmasi qo‘riqlash boshqarmasi moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Tayinlovga qadar Qo‘shtepa tumani hokimining o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlagan.

Oilali, turmush o‘rtog‘i – uy bekasi, to‘rt nafar farzandi bor.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

Facebook,

2022-05-03 16:49:25